



## RAQAMLI IQTISODIYOT - TARAQQIYOTNING YANGI BOSQIHI


**Rahmonova Maxliyo Xamro qizi**

*MGQIZ kimyo-tahlil laboranti, iqtisodchi, mustaqil izlanuvchi*

**Annotatsiya:** *Maqola hozirgi kundagi dolzarb mavzuda yozilgan. Asosan rivojlanayotgan O'zbekiston Respublikasining raqamli texnologiyalarga qay tarzda moslashib borayotganligi haqida so'z boradi. Ilmiy tahlillar kuzatishlar natijasida olib borilgan. Xorij tajribalari atroflicha o'rganilib analiz qilingan va maqbul variantlari taklif sifatida ko'rsatilgan. Muhim faktlar o'rinli tarzda keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, yalpi ichki mahsulot, soliq tizimi, electron banklar.*


Hozirgi davrda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar hayotimizga shiddat bilan kirib kelayotgani hech kimga yangilik emas, albatta. Rivojlanayotgan dunyoning qator mamlakatlari singari O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayoni jadal amalga oshayotganini yon-atrofga boqib ham bilish mumkin. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Biroq, raqamli iqtisodiyotning o'zi nima, uning qanaqa afzallik va kamchiliklari mavjud va aynan qaysi sohadagi muammolar yechimida raqamli iqtisodiyotning aynan qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor qaratish lozim degan savolga javob olsak, ayni o'rinli deb o'ylaymiz. Darhaqiqat, zamonamizning asosiy elementi hisoblangan axborot kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)lari o'z navbatida iqtisodiyotni ham qamrab olmoqda. Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib aytganicha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron to'lovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir. Mamlakatimiz rahbari ham davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2018 yil 28 dekabrda 2019 yil uchun eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham mamlakatimizda raqamli iqtisodning rivojlantirish bo'yicha quyidagilarni ta'kidlab o'tdilar: "Iqtisodiyotning barcha sohasini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko'zda tutadigan "Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasi"ni ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini hayotga tadbiq etishimiz zarur. Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni





kamida 30 foizga o'stirish, korruptsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o'tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda. Shuning uchun hukumatga ikki oy muddatda raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish topshiriladi. Bu borada axborot xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur"<sup>2,3</sup>.

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan ishlamoqda. Hozirgi kunda, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o'tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o'tkazilmoqda. Lekin bunday ishlarni hali yetarli deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham raqamli iqtisodiyotni qanday rivojlantirish masalalari jamiyat va xalq oldida ko'ndalang bo'lib turibdi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi uchun ham uning dunyo miqyosidagi raqobatbardoshligini belgilab beradigan strategik ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotimizning yana bir muhim ajralib turadigan jihati shundaki, yalpi ichki mahsulotning asosiy qismi davlat korporatsiyalari (yoki davlat ishtiroki ulushi katta bo'lgan kompaniyalar) tomonidan yaratiladi. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot platformalarini tuzishda asosiy e'tiborni quyidagi yo'nalishlarga qaratish zarur: telekommunikatsiyalar, energetika, transport, sog'liqni saqlash, soliq va soliqqa tortish, dori-darmonlar logistikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash, turizm, tashqi iqtisodiy faoliyat, ko'chmas mulk savdosi va ishlab chiqarish. Aynan shu sohalarning rivojlanishi kerakli infratuzilma va mos texnologik baza yaratishga imkon beradi. So'ngra ularni iqtisodiyotning boshqa sohalarga ko'chirgan holda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni maksimal darajada tez shakllantirish mumkin bo'ladi. Bunday yondashuv bugungi kunda Respublikamiz uchun eng maqsadga muvofiq bo'lib ko'rinadi, lekin u ham kamchiliklardan xoli emas, albatta. Ammo mos keluvchi strategiya tanlashda unga asoslanishi lozim bo'lgan raqamli iqtisodiyot konsepsiyasini shakllantirish uchun taxmin qilingan yo'l risklarini ham, raqamli iqtisodiyot risklarini ham hisobga olish lozim"<sup>4</sup>. O'zbekistonda soliq tizimini axborotlashtirish keng ko'lamda olib borilmoqda. Masalan, [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz) foydalanuvchilarga bir qancha imkoniyatlar yaratilib berilgan. Bu esa o'z navbatida fuqarolarning vaqtini va mablag'ini tejashga yordam beradi. Biroq, bank tizimlarida bugun bir qancha muammolarga duch kelmoqdamiz. Yanikim, O'zbekiston banklarining ko'pchiligi hali to'laqonli raqamli iqtisodiyotni takomillashtira olmagan. Banklarning elektronlashtirish vazifasi juda muhimdir, bunga misol sifatida Buyuk Britaniya banklarining asosiy xizmat ko'rsatish bo'limi tarmoqda amalga oshiriladi. Demakki, oldimizda turgan asosiy vazifa banklarda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish zarur. Dunyo bo'ylab har yili milliardlab mablag'lar aylanadi. Bunga asosiy sabab tarmoq bozorlari sanaladi. Globallashuv davrida yashayotgan ekanmiz, dunyoning bir chekkasidagi mahsulotni sotib olish ham bugun muammo sanalmay qoldi. Asosiy reklama bozorlari, auksionlar, elektron banklarning axborotlashuvi raqamli iqtisodiyotning bo'lagi sanalmoqda. Masalan, dunyoda savdo-







sotiq bilan shug'ullanadigan Amazon shirkatining yillik aylanma daromadi \$177.86 milliardni tashkil etadi. Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarini rivojlantirish uchun ham asosiy vazifa sifatida avvalo elektron bozorlarni rivojlantirish lozim. Bu esa o'z navbatida milliy mahsulotlarni xorij bozorlariga kirib kelishi va eksport ko'rsatkichlarini o'sishiga yordam beradi. Bundan tashqari big data, sun'iy intellekt, mashina vositasida ta'lim berish, kraudsorsing, kraudfunding, blokcheyn va bulutli texnologiyalar ham kelajak iqtisodiyotida va korporativ boshqaruvda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini hayotning rivojlanish tendensiyalari yaqqol ko'rsatib turibdi. Raqamli kompaniyalar prinsipial jihatdan yangi biznes modellariga asoslangan bo'lib, ular raqamli iqtisodiyotning yangi imkoniyatlaridan foydalangan holda, o'zlarining xizmat va mahsulotlarining narxlarini pasaytirish orqali, mijozlar uchun narx taklifini oshirishlari mumkin, shuning uchun ham bozorning bir qismini eski kompaniyalardan olish imkoniyati mavjud. Biznes mijozga yo'naltirilgan bo'lib, bu qiymatni oshirishi va mijozlarning yangi talablarini qondirishi mumkin bo'lgan har qanday o'zgarishlarning ahamiyatini yanada kuchaytiradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Raqamli kanallar (internet, smartfonlar, avtomatlar) - mahsulot va xizmatlarni sotish va olish uchun ishlatiladi. Ushbu kanallar minimal xarajatlar bilan global bozorga chiqish imkoniyatini beradi. Masalan, siz aviachiptalarni dunyoning istalgan nuqtasidan, istalgan yo'nalish uchun sotib olishingiz mumkin. Xulosa o'rnida, mamlakatimiz rivoji, uning jahon hamjamiyatidagi o'rni ayniqsa iqtisodiyot sohasi bo'yicha yetakchi o'rinda bo'lishi uchun eng avvalo asosiy vazifa sifatida raqamli iqtisodiyotga keng yo'l ochilishi lozim desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning uchun eng avvalo xalqimizni axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o'rgatishimiz lozim. Bundan tashqari yetakchi xorijiy davlatlar tajribasini o'zimizda tatbiq etsak biz uchun ayni muddao bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish to'g'risida" gi qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda 2019 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
- 3.Raqamli iqtisodiyot: muammolar va yechimlar. R.H.Ayupov, G.R.Baltaboeva. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 2019
4. <http://tatuff.uz/raqamli-iqtisodiyot-taraqqiyotning-muhim-omili/>

